
XALQ SALOMATLIGI - YURT BOYLIGI

Karantin sharoitida aholiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida tuman hokimi I.Novikov tashabbusi va sektor rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan tuman "Dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati qoshida 37 ta turg' un hamda joylarda 14 ta ko' chma savdo do' konlari tashkil etilib, aholiga arzon narxlarda oziq-ovqat va qishloq xo' jaligi mahsulotlari yetkazib berilmoqda.







Virusning tarqalishiga qarshi kurashish maqsadida mahallalarda tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi xodimlari tomonidan kunlik dezinfeksiya ishlari olib borilmoqda.





Mas'ul xodimlar tomonidan maxsus radiouzellarda aholini belgilangan sanitariya ^{97 14} gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilib, karantin davrida uyda qolishlari hamda daromad manbai bo'lgan tomorqa yerlaridan samarali foydalanishga chorlanmoqda.





Bugun dunyo hamjamiyatini o' ziga xos sinovdan o' tkazayotgan koronavirus pandemiyasini birdamlik bilan yengamiz.

Qo' shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-10 13:15:22